

O'quvchi qalbiga yo'l

Maktab o'quvchilarining institutimizga tashrifi bir jihatdan ularning bilim va salohiyatlarini oshishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan bizning sohamizga, irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish jabhasiga qiziqishini orttiradi. Natijada ular qalbida aynan institutimizda o'qish va qishloq xo'jaligi va irrigatsiya yo'nalishi bo'yicha yaxshi mutaxassis bo'lish istagi nish uradi.

"Ibratli, ijodkor insonlar" ruknida taniqli san'atkorlar bilan uchrashuvda "Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" fakulteti dekani O.R.Kucharovning tashabbusi bilakn Toshkent shahar Shayxontahur tumanidagi 192 - sonli maktab o'quvchilari maktab direktori Dildora Shavkatovna rahbarligida ishtirok etishib estetik zavq olishdi. Ular ayni paytda institutimiz tarixi va buguniga oid ma'lumotlar, eksponatlar va laboratoriyalar bilan tanishtirildi. "Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari Jamshid Turdiyev ushbu vazifani bajarish asnosida o'quvchilarning qiziqish bilan bergan savollariga to'la javob berdi. O'quvchilar mamnun holda katta taassurotlar bilan qaytishdi.



Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov